



IX-XIIIASR BOSHLARIDA ESKI TERMIZ SIRKOR IDISHLARIDA
EPIGRAFIK YOZUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI

Raxim Xudoyberdiyev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

+99899 420 23 07 r.xudoyberdiyev@dtpi.uz

Z.Xoliqov

ilmiy maslahatchi: t.f.n. arxeolog.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo vohasidagi arxeologik yodgorliklardan topilgan sirlangan buyumlarning yasash tarixi, rivoji hamda ahamiyati haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek Eski Termiz va Chag'oniyonda hunarmandchilikning aynan kulolchilik sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlari, o'ziga xos rangli, sikori idishlarining hususiyatlari alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Termiz, Chag'oniyon, chiroqlar, Budrach yodgorligi, Dabilqo'rg'on yodgorligi, Arab yozuvi tushirilgan sirkor lagan, SVAM.

IX-XIII asrlar davomida Termiz va Chag'oniyonda hunarmandchilik ham ravnaq topgan. Hunarmand ustalar mahallalari Termiz va Chag'oniyon shaharlari bilan bir qatorda qishloqlarda ham o'rganilgan. Termizda kulollar mahallasi bilan bir qatorda temirchi va shishasozlar mahallalari ham bo'lgan. Temirchi ustalar mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari bilan bir qatorda antiqa shamdonlar, qosh tergich va ko'zgularni quyma va bolg'alash uslubida yasaganlar. Misgar ustalar buyumlarga bezak berishda chizma naqsh usullaridan keng foydalanganlar. Budrach yodgorligi (Chag'oniyon shahari)ni qazish davomida topilgan mis idishlar xazinasini o'lkada misgarlikning taraqqiyotidan dalolat beradi. XI asrga oid og'irligi 300 kilogrammga yaqin bu xazina turli idishlardan, jumladan katta-katta qozonlar, hovoncha, shamdon va ko'zalardan iborat. Ushbu xazinaning eng noyob namunalari mazkur zalning markaziy qismida namoyish etilmoqda. IX-XIII asrlar davomida o'lka hunarmandlari ko'k, havorang shishadan qadahlar, bankasimon, butilkasimon idishlarni, kimyogarlar foydalanadigan kolbalar, grafinlar va pardoz-andoz buyumlarini juda mohirlik bilan yasaganlar. Zal ko'rgazmalarining katta qismi kulolchilik namunalari tarkib topgan. IX asr oxiridan Termiz va Chag'oniyonda sirkori idishlar yasash o'zlashtirilgan. X asrning sopol idishlari, xususan lagan, kosa, taqsimcha, ko'zalar yashil, jigarrang va sarg'ish sirlarga bo'yalgan. Bir tur idishlar esa oq ranga bo'yalib, sir ustidan kufiy uslubida bitilgan qora va jigarrang yozuvlar bilan bezalgan. X-XI asrlarda idishlarning turlari yanada boyib, turfa rangli bo'yoqlarga bezalib, naqshlari ustidan yaltiroq sir bilan qoplangan. Termizlik kulollar o'rta asrlarda simob ko'zachalar yasashda ham mashhur bo'lganlar.





Termizda sirkori kulolchilik ashyolarining yasalishi hamda uning Movarounnahr kulochiligidagi o'rni.

Bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyi ko'rgazma zallari hamda asosiy fondida ko'plab eng noyob ashyolar saqlanmoqda va namoyish etib kelinmoqda. Ana shunday topilmalardan ayrimlariga to'xtalib o'tsak, **SVAM 391, INV 452**. Kichik xajmdagi idish bo'lib, Eski Termiz. IX-X asrlar. O'lchami: 2,5x11x4,5 sm ni tashkil etib, mazkur ashyo arxeologik to'liq saqlangan. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. O'rta asrlarga xos tarzda sirkori. Gardish qismi tashqariga qarab gorizontaal xolatda tasvirlangan. Hovuzchasi aylana shaklda bo'lib, devorlari juda past qilib ishlangan. Tag qismi disksimon shaklda. Jigar rang va yashil rangda islimiy naqshlar bilan bezatilgan. Tashqi tomoni sirlanmagan. Ichki qismida gorizontaal yashil chiziqlar bilan bezatilib, aynan ichki qismida kosaga o'xshash qilib chuqurcha ishlangan. Mazkur chuqurcha qismida yashil chiziqlar tushirilganligini ko'rishimiz mumkin. (1-rasm).

Shuningdek, o'sha davrda ijtimoiy xayot uchun eng zarur ashyolardan biri moy chiroqlar bo'lib, zulmatni yoritishda muhim rol o'ynagan. Chiroqlarga sir berish madaniy xayotning rivoj topishi bilan alohida harakterlidir. **SVAM 680, INV 1030**, Sirkori chiroq topilgan joyi Eski Termiz. IX-X asrlarga oid bo'lib, o'lchami: 3,2x4x5 sm ni tashkil etadi. Arxeologik to'liq (o'rta). Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Chiroqning bir tomonida baldog'i bo'lib, ikkinchi tomonida pilig uchun maxsus, tashqariga qarab torayib borgan. Hovuzchasi esa markazida joylashgan bo'lib, yuqori qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan Tag qismi tekis. Chiroqning ichki va tashqi qismida yashil rangda angob berilib sirkori. (2-rasm).

SVAM 3521/2 INV 1043 Sirkori chiroq Eski Termizdan topilgan. IX-X asrlar. O'lchami: 3,4x2,5x3,8 sm. Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Chiroqning bir tomonida baldog'i bo'lib, ikkinchi tomonida pilig uchun maxsus, tashqariga qarab torayib borgan. Chiroq baldog'i yon tomoniga singan joyi mavjud. Hovuzchasi esa markazida joylashgan bo'lib, yuqori qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan. Tag qismi tekis. Chiroqning ichki va tashqi qismida ko'k rangda bo'yoq berilib, sirkori. (3 rasm).

Idishlarga sir berish an'anasi bizga savdo munosabatlari orqali arab tujjorlari yoki eron savdogarlari tomonidan olib kelingan. Sababiga to'xtalsak, yuqorida ham airoflicha to'xtaldik, boisi shuki davriga e'tibor qaratishimiz lozim. Ayni bizning hududlarga VIII asrning oxirlari IX asrning boshlarida kirib kelishi qadimgi Xitoy hududlarida savdo qilgan islom diniga e'tiqod qiluvchi savdogarlar tomonidan kirib kelishi kuzatildi. Keltirilgan idishlarda o'simliklar, geometrik naqshlar va boshqalar. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi nega aynan islom diniga e'tiqod qilgan savdogarlar orqali kirib keldi. Bizning hududimizdagi so'g'd savdogarlari nafaqat mintaqamiz balki Xitoydan to Kavkaz hududlariga qadar savdo munosabatlarida yetakchilik qilgan. Endi mana shu savolga javobni biz qadimgi sivilizasiya o'choqlaridan biri bo'lmish Xitoy davlatidan olamiz. Xitoy azal-azaldan xunarmandchilikning sirlari nihoyatda qattiq qo'riqlanganligi evaziga bu



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



mahsulotlar bizning yurtimizga savdo yo'llari orqali olib kelingan ammo ishlab chiqarish bizning xududlarga Eron savdogarlari tomonidan olib kelingan. 4 rasm.

SVAM 3546. Sirkori lagan Eski Termiz hududidan topilgan. IX-X asrlarga oid bo'lib, laganning o'lchami: 4x19,5x9,5 sm bo'lib, arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Laganning Gardish qismi ichkariga qarab bir oz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Lagan yuzasi oq rangda bo'yoq berilib sirkori. 4 rasm.

SVAM 34376. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan. IX-X asrlarga oid. O'lchami:6x7sm ni tashkil etadi. Arxeologik to'liq (o'rta). Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Tovoqning Gardish qismi tashqariga qarab bir oz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Idishning ichki devoriga to'liqligicha oq rang rang bilan qoplangan. Ichki qismida to'rt tomonga qaratilgan uch qatorlik ko'k rangda chiziqlar لـيـلـو vertikal shaklda tortilgan. Ichki qismining markazida arab yozuvi bilan lilloh so'zi saqlanib qolgan. 5- rasm.

SVAM 34373. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan. IX-X asrlarga taalluqli. O'lchami:7,5x21x10 sm. Sirkori kosa arxeologik jihatdan to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Sirkori kosaning gardish qismi ichkariga qarab bir oz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Ichki qismiga sariq yashil qora ranglarda bo'yoq berilib islmiy naqshlar bilan bezatilgan va sirkori. Avvalo kosaning ichki qismida qaymoq rang fon berilgan so'ng ustidan gardishidan biroz pasroqda qora chiziq bilan aylana xalqa chizilgan. Mazkur xalqa qora rangli chiziqlar bilan panjarasimon qilib ishlangan. Panjara bezakning ichida ko'k, va sariq berilgan. Kosaning markazida ikkita qora chiziq ichma-ich qilib ishlangan ayni shu kvadrat bezakning ichki qismida sakkiz qirrali bezak va uning markazida yana bir kichik aylana ishlangan. Ayni markazidagi kichik aylanadan kosaning gardishiga qadar bargsimon to'rtta bezak vertikal holda ishlangan. Barg tasviri tushirilgan bezak qismi ikkita qora chiziqlar bilan ishlanib, qora chiziqlarning ichi yashil va sariq rang bilan bo'yalgan. (6-rasm.)

SVAM 266 INV 289. Sirkori kosa. Eski Termizdan topilgan. X - XI asrlarga oid bo'lib, kosaning o'lchami:3,6x12,8x5,2 sm. Arxeologik to'liq (o'rta). Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Gardish qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan. Tag qismi disksimon shaklda. Ichki tomoniga oq angob ishlangan bo'lib, jigar rangda parallel chiziqlar yordamida to'rt qismga bo'lingan. Parallel chiziqlar orasida qizil rangda bittadan chiziq tortilgan.To'rtga bo'lingan qismlarda qora rangda g'uncha shaklida islmiy naqshlar bilan bezak berilgan. (7- rasm.)

Svam 34852 Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan bo'lib, IX-XI asrlarga oid. O'lchami:8x11x21sm. Arxeologik to'liq, qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Tovoqning Gardish qismi ichkariga qarab bir oz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Ichki qismiga islmiy naqshlar bilan bezak berilib sirkori. Kosaning tashqi qismi sirlanmagan hamda ichki qismida qo'llanilgan bezaklar o'ziga hos tarzda ishlangan. Bezakda jigar rang bilan o'simlik novdalari ishlangan bo'lsa, barg qismi yashil rangga bo'yalgan. (8-rasm).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SVAM 1975 INV 314. Sirkori ko'za Eski Termizdan topilgan. IX - XI asrlarga oid bo'lib, o'lchami: 19x7sm. Arxeologik to'liq (yaxshi). Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Ko'za keng og'izli, bo'yin qismi uzun, qorin qismi yarimsharsimon shaklda, tag qismi disksimon qilib ishlangan. Ustki qismi sirkori. Bo'yin qismida sariq rangda chiziqlar tortilgan. Qorin qismida zanjir xalqasi ko'rinishida bir necha bezaklar qo'yilgan. Xalqalar qora rangda chegaralanib, ichki qismi oq rangda berilgan. Xalqalar orasi oq nuqtachalardan iborat pushti rangdagi fondan bilan bezatilgan. Ko'zaning gardishidan to qorin qismigacha ya'ni bo'yni qismida biroz yorqin ammo jigar rangli to'lqisimon chiziqlar yordamida bezalganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'zaning gardishi singan lekin bo'yni yaxshi saqlangan. (9-rasm)

SVAM 1976 INV 315. Sirkori mustaxara Eski Termizdan topilgan mazkur ashyo IX - XI asrlarga oid bo'lib, o'lchami:17x13,5 sm. Arxeologik to'liq (o'rta). Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Mustaxara sirkori bo'lib. Baldog'i va gardishi saqlanmagan. Qorin qismida tashqariga qarab bo'rtib chiqqan bezagi bor. Ustki qismi islmiy naqshlar bilan bezatilgan. (10-rasm)

SVAM 687, INV 11038. Sirkori tovoq Eski Termizdan topilgan IX-X asrlarga oid bo'lib, o'lchami: 9x21,5x10,7 sm. Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Tovoqning Gardish qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan. Tag qismi disksimon Ichki qismiga. sariq va yashil rang bilan bo'yalgan. Sirkori idishning tashqi qismi sirlanmagan. Ichki qismida qo'llanilgan bezaklar to'xtaladigan bo'lsak, kosaning ichki qismiga oq rang bilan fon berilib, gardishining yuqori qismidan aylana shaklda yashil rang bilan aylana shaklda bo'yalgan. Sirkori idishning ichki qismida olti dona uchburchaksimon sariq chizichli bezaklar idish devori bo'ylab chizilgan. Idishning ichki qismi markazida yashil aylana xalqa ishlangan bo'lib uning ichki qismida oq rangli sirni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, sirkori idishning ichki qismida yuqorida ta'kidlangan sariq rangli uchburchak bilan birga yonma-yon yashil rangda bargga o'xshash bezaklar orqali vertikal holatda qo'llanilgan.(11-rasm)

SVAM 687/2, INV 11038. Sirkori tovoq Eski Termizdan topilgan. IX-X asrlarga oid bo'lib, o'lchami:11x27,5x13,2sm ni tashkil etadi. Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Gardish qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Ichki qismiga sariq, yashil va jigar ranglar bilan aralsh holda bezak berilib sirkori. Mazkur idishda ham tashqi qism sirlanmaganligini ko'rishimiz mumkin. (12-rasm)

SVAM 687/2, INV 11038. Sirkori tovoq Eski Termizdan topilgan. IX-X asrlarga oid bo'lib, o'lchami:10,5x26,5x11,3sm ni tashkil etadi. Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Gardish qismi ichkariga qarab biroz qaytarilgan. Tag qismi disksimon. Ichki qismiga oq angob berilgan bo'lib, angob ustidan gardish ichki tomonidan yarim aylana shaklida idishni to'rt qismga bo'lgan. Bo'lingan qismlarda sariq va yashil raglarda islmiy naqshlar berilgan. Markazda romb shaklda sariq rangda bezak berilgan. Romb va yarim aylana chiziqlar orasidagi oq fonda malla rangda qo'shtirnoq shaklidagi bezaklar qo'yilgan. Romb ichida qora rangda xochsimon belgi chizilgan. (13-rasm)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SVAM 3523. Sirkori ko'za Sherobod tumani Dabilqo'rg'on yodgorligidan topilgan. Mazkur ko'zaning davri IX-XII asrlar bo'lib, o'lchami:13x7sm ni tashkil etadi. Arxeologik jihatdan to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Ko'zaning yuqori qismi ya'ni gardishi saqlanmagan. Qorin qismi sharsimon shaklda bo'lib, tag qismi disksimon. Ko'zaning ustki qismiga kul rangda bo'yalgan. Angob ustidan ko'zaning qorin qismida oq va qora rangda labirintga o'xshash belbog' chizilgan. Belbog' yuqori qismida hayvon tasviri tushirilgan. Mazkur ko'zada kiyik tasviri ishlangan bo'lib, qora rang bilan ishlangan tanasi malla rang bilan bo'yalgan.(14-rasm)

SVAM 3524. Sirkori kosa. Sherobod tumani Dabilqo'rg'on yodgorligidan topilgan. IX-XII asrlarga oid bo'lib, o'lchami: 8,5x20,5x10,5sm. Arxeologik jihatdan to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali:sopol. Gardish qismida singan joylari mavjud. Kosa konussimon shaklda. Tag qismi disksimon. Ichki qismi sirkori. Ichki tomon naqshlari besh qismga bo'lingan bo'lib, qora rangda nuqtalar shaklida bezak berilgan va sariq rang bilan gul bargiga o'xshash tasvir tushirilgan. (15-rasm)

SVAM 265. Sirkori kosa XIV-XV asrlarga oid bo'lib, Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari:9x7x19,5 sm. Arxeologik to'liq. Sopol Texnikasi: kulolchilik charxida yasalgan. Kosa doirasimon shaklda bo'lib, gardishlarining biroz qismi sinib qolgan (gardishlarida yemirilgan joylari bor). Ichki hamda tashqi tomonlarida arksimon shakldagi moviy va qora rangli bezaklari bor. Tag qismi tekis. Idishning ichki qismi kulrang fon berilgan so'ngra ustidan moviy rang bilan bargsimonga o'xshash bezaklar idish devori bo'ylab berilgan. Kosaning ichki qismi markazida ikki aylan chiziq ishlangan so'ng mazkur chiziqlar ichma-ich ishlangan bo'lib, orasida moviy rang nuqtalar bilan bezak ishlangan. Mazkur aylana bezakning ichiga olti qirrali yulduz ishlangan. So'ngra mazkur olti qirrali bezakning ichidan yana xuddi shunday olti qirrali yulduz uning ichda ham jigar rang solingan parallel chiziqlar ishlangan.

SVAM 3418, INV 1333. Sirkori kosa XIV-XV asrlarga oid bo'lib, Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari:8,5x17,5x7sm. Arxeologik to'liq sopol Texnikasi: kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ko'rinishi doirasimon shaklda. Gardishining bir yon bo'lagi singan. Saqlanib qolgan qismi esa biroz yemirilgan.kosaning ichki qismi oq rang bilan dastavval sirkori so'ngra moviy va qora rangli bo'yoq bilan gul chizilgan. Ehtimol ۋ arab alifbosi bo'yicha vov tovushini belgini ishlatgan bo'lishi ham mumkin. Idish devorida uchta qora rangli uchta moviy rangli harf ishlangan. Idishning tag qismi tekis disksimon ishlangan.

SVAM 1215, INV 441. Sirkori kosa XIV-XV asrlarga oid Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari:8,5x19,2x7,3 sm. Arxeologik to'liq Texnikasi: kulolchilik charxida yasalgan. kosaning ko'rinishi doirasimon,gardishlari zig-zag qilib yasalgan. Oq rang bilan bo'yilib sirkori. Tag qismi tekis disksimon ishlangan.

SVAM 381. Sirkori chiroq XIV-XV asrlarga oid bo'lib, Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari:13,5x9,5x7 sm. Arxeologik to'liq (o'rta) sopol Texnikasi: kulolchilik charxida yasalgan. chiroqning gardishi disksimon bo'lib, birozginasi sinib qolgan. Bo'yni tor, qorni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



keng va ichi kovak, tumshug'ining o'rtasi ikki qismga bo'lingan uzunchoq. Yuzasi ko'k rang bilan sirkorlangan, ba'zi bir joylari uchgan. Tag qismi tekis .

SVAM 34389. Sirkori chiroq XIV-XV asrlarga oid Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari: 10x5,5x3,5 sm. Arxeologik to'liq, sopol Texnikasi: kulolchilik charxida yasalgan. gardishi ingichka, og'zi tor, tumshug'i uzun uchli, baldog'i qayrilgan holatda qo'ndirilgan. Qorin qismining bir yon tomoni sinib qolgan. Tashqi va ichki tomonlari ko'k rangli bo'yoqlar yordamida sirkorlangan. Tagi tekis yassi holatda ishlangan.

SVAM 2249. Sirkori lagan XIV-XV asrlarga oid Eski Termizdan topilgan. O'lchamlari: 32x9,5 sm. Arxeologik to'liq, kulolchilik charxida yasalgan. Laganning Gardish qismi ichkariga qarab bir oz qaytarilgan.. Laganning ichki qismida yuzasida aylanasiman bezak berilib to'rt tomonga qaragan qora va moviy rangda lola tasviri tushirilgan. Lagan gardishlarida islimiy shaklda bezaklar berilib sirkori. Tag qismi disksimon. Laganning ichki qismida ko'k rang bilan fon berilgan bo'lib, so'ng ustidan qora rang bilan parraksimon 4 qismli bezak berilgan bo'lib, markazida qora nuqtalar bilan aylana bezak qshllanilgan. Idishning ichki qismi lagan gardishining biroz pastki qismidan qora nuqtalar gardishi bo'ylab bezak berilgan.

SVAM 459. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan bo'lib, IX - XI asrlarga oid. O'lchami: balandligi-8 sm, diaganali-21sm. Saqlanish holati Arxeologik to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ichki qismida oq rang bilan dastavval sirkori so'ng, ustidan qora rangli bo'yoq bilan kosaning ichki qismidan parraksimon to'rtga bo'lingan. Ayni shu bezakning qoq markazidan kichik aylana shaklda bezak qo'llanilgan. Yuqorida aytib o'tilgan parraksimon bezakning ichki qismi sariq rang bilan bo'yalgan. Kosaning ichki qismida shuningdek, yashil o'simlik tasviri va uning atrofida qora chiziqlar vertikal shaklda qo'llanilgan.

SVAM 697. Sirkori kosa Sherobod tumani Dobilqo'rg'ondan topilgan bo'lib, IX - XII asrlarga oid. O'lchami: balandligi-10,5 sm, dioganali-24 sm. Saqlanish holati Arxeologik to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ichki qismida oq rang bilan dastavval sirkori so'ng, ichki qismidan gardishidan biroz patroq qismidan qora rang bilan gulli bezaklar yordamida aylana xalqa ishlangan. Kosaning tashqi qismi sirlanmagan.

SVAM 683. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan bo'lib, X asrga oid. O'lchami: balandligi-6 sm, dioganali-6.5 sm. Saqlanish holati Arxeologik to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ichki qismida oq rang bilan dastavval sirkori so'ng, ichki qismidan jigar rangli hamda yashil rang bilan bo'yalgan gulli bezaklar ishlangan. Kosaning tashqi qismi sirlanmagan.

SVAM 3395. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan bo'lib, X- XI asrlarga oid. O'lchami: balandligi-5 sm, dioganali-5.5 sm. Saqlanish holati Arxeologik to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ichki qismida oq rang bilan dastavval sirkori so'ng, ichki qismidan jigar rang bilan to'rt qismga xochsimon bezak usulida bezatilgan hamda yuqori gardish qismidan jigar rang bo'yoq yordamida nuqtalar bilan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bezatilgan. Shuningdek, kosaning ichki qismida uch donadan ko'k rang bilan bezatilganligini ko'rishimiz mumkin. Kosaning tashqi qismi sirlanmagan.

SVAM 34849. Sirkori kosa Eski Termizdan topilgan bo'lib, XI - XIII asrlarga oid. O'lchami: balandligi-8 sm, dioganali-19 sm. Saqlanish holati Arxeologik to'liq. Qizil loydan kulolchilik charxida yasalgan. Kosaning ichki qismida kulrang bilan dastavval sirkori bo'lib, idishning tashqi qismi sirlanmagan. Idish devorining ichki qismida gardishidan biroz pastroq qismida gulli to'lqinsimon naqshlar bilan bezak berilgan. Naqshlarning tag qismidan jigar rang bilan aylana bezak qo'llanilgan.

SVAM 2023. Arab yozuvi tushirilgan sirkor lagan bo'lagi

Eski Termiz. Termiz tumani. IX-X asrlar. O'lchami: 7x13 sm bo'lib, Arxeologik to'liq emas (o'rta). Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Laganning bir qismi saqlanib qolgan. Laganga oq fon ustiga kufiy uslubida yozuv tushirilgan. Laganning yuza qismida jigar rang bilan epigrafik bitikda "Lilloh yoki Yo lix" so'zlari bitilgan bo'lib, ma'nosi shunday-ki "Allox uchun, Alloxniki, Alloxga" degan ma'noni anglatadi. Lagan bo'lagining yarmidan yelim (kley) bilan ta'mirlangan. Mazkur topilma hozirgi kunda Termiz Arxeologiya muzeyi O'rta asrlar davriga oid fondida saqlanmoqda.

SVAM 1972. Sirkor lagan. Eski Termiz. Termiz tumani. IX-XI asrlar. O'lchami: 5x17,5 sm bo'lib, Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Laganning ichki qismi jigar rang bilan fon ustiga geometrik usulda naqsh tushirilgan. Laganning yuza qismi gardishidan biroz pastki qismidan jigar rang bilan xalqa so'ngra uning paski qismidan oq chiziq bilan aylana xalqa ishlangan. Lagan markazidan to'rt bargdan iborat gullar atrofida oq chizikli gullar ishlangan ichki qismi to'q jigar rang bilan bo'yalgan. Mazkur topilma hozirgi kunda Termiz Arxeologiya muzeyi O'rta asrlar davriga oid ko'rgazma zalda saqlanmoqda. (20-rasm).

SVAM 32478. Sirkor kosa. Eski Termiz. Termiz tumani. XI-XII asrlar. O'lchami: 4,5x5,5 sm bo'lib, Arxeologik to'liq emas. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Kosaning ichki qismi oq rang bilan fon ustiga arab yozuvi vertikal shaklda tushirilgan. Kosaning gardishidan pastki qismiga qadar bir qismi saqlangan. Kosaning tag qismi ichki devorida jigar rang bilan qalampir shaklda naqsh ishlangan. Kosaning markaziga

اجابه yaqin qismida arab alifbosida forscha "ajabalah" so'zi yozilgan bo'lib, ma'nosi "tog'lik", "tog'lik odam" ma'nolarini anglatadi. Mazkur topilma hozirgi kunda Termiz Arxeologiya muzeyi O'rta asrlar davriga oid ko'rgazma zalda saqlanmoqda. 16-rasm.

SVAM 32475. Sirkor kosa. Eski Termiz. Termiz tumani. XI-XII asrlar. O'lchami: 8x10 sm bo'lib, Arxeologik to'liq emas. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Kosaning ichki qismi oq rang bilan fon ustiga uchburchak shaklda ichida uchib ketayotgan qush tasviriga xos bezak tushirilgan. Kosaning gardishidan pastki qismiga qadar bir qismi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



saqlangan. Kosaning tag qismi ichki devorida jigar rang bilan ishlangan naqsh nihoyat darajada estetik didning yuqori ekanligidan dalolat.

SVAM 32473. Sirkor kosa. Eski Termiz. Termiz tumani. XI-X asrlar. O'lchami: 3,5x10x5 sm bo'lib, Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Kosanning ichki qismi yashil rang bilan fon bezatilgan. Kosaning tashqi qismiga qadar to'liq sir berilgan. Kosa to'liq yashil rang ishlangan. O'rta Osiyo jumladan Termizga yashil rang bilan sir berish ilk ranglardan biridir.

Ilmiy ko'makchi 10469 Sirkor lagan. Eski Termiz. Termiz tumani. IX-XI asrlar. O'lchami: 2,5x27,5 sm bo'lib, Arxeologik to'liq. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Laganning ichki qismi oq rang bilan fon ustiga idish devorining yuqoridan pastga tomon to'lqinsimon (yaxmalakga o'xshash forma) usulda naqsh tushirilgan. Naqshning yuqori va pastki qismidan aylana xalqa ichiga ishlangan. Mazkur topilma hozirgi kunda Termiz Arxeologiya muzeyi O'rta asrlar davriga oid ilmiy ko'makchi fondida saqlanmoqda.

